



**MAVZU: XALQARO XUSUSIY HUQUQDA SUN'IY INTELLEKT
ISHTIROKIDAGI NIZOLARNI TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI**

Muxtorov Nodir Komil o'g'li

Muallif: Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro tijorat huquqi yo'nalishi magistranti

Email: muxtarov.nodir@gmail.com

Mavzu dolzarbligi. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining global ko'lamda jadal rivojlanishi xalqaro huquqiy munosabatlarga, xususan xalqaro xususiy huquqqa bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, transchegaraviy shartnomalar, avtomatlashtirilgan xizmatlar va algoritmik qarorlar bilan bog'liq nizolar soni ortib bormoqda. Biroq bu sohada aniq huquqiy normalar an'anaviy normalar bilan cheklanganligi va yangicha yondashuvdagi normalar deyarli yo'qligi, SI subyekt sifatida e'tirof etilmasligi va javobgarlik doiralarining belgilab berilmaganligi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Xalqaro xususiy huquqda SI ishtirokidagi nizolarning huquqiy xususiyatlarini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va O'zbekiston qonunchiligi hamda xalqaro normalar asosida takliflar ishlab chiqish.

Asosiy muammolar.

- Huquqiy noaniqliklar: SI bilan bog'liq shartnomalarda taraflarning huquqiy statusini aniqlash qiyinlashmoqda.
- Javobgarlik masalasi: SI tizimlari mustaqil qaror qabul qilganda, natijada yuzaga kelgan zararni kim qoplashi aniq emas.
- Normativ bo'shliqlar: Xalqaro darajada SI ga oid alohida kollizion normalar, yurisdiksiya qoidalar mavjud emas.
- Etik me'yorlarning yo'qligi: SI faoliyatini axloqiy tamoyillar bilan cheklovchi huquqiy mexanizmlar yetarli emas.

Takliflar. Xalqaro miqyosda sun'iy intellekt bilan bog'liq nizolarni tartibga solishda mavjud kollizion normalarni qayta tahlil qilish, ulardan ba'zilarini saqlab



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

qolgan holda, sun'iy intellekt ishtirokidagi shartnomaviy va delikt munosabatlari bo'yicha yangilangan, moslashtirilgan normalar ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, shartnomaviy huquq va delikt javobgarligi doirasida sun'iy intellektga doir masalalarni qamrab oluvchi yagona huquqiy yondashuvni ishlab chiqish taklif etiladi.

Model qonun qabul qilish: O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan SI etikasi bo'yicha model qonun tashabbusini xalqaro miqyosda targ'ib qilish va huquqiy asoslarga aylantirish.

Milliy qonunchilikni takomillashtirish: O'zbekistonda sun'iy intellektga oid qonunni ishlab chiqishda Yevropa Ittifoqining Sun'iy intellekt aktida belgilangan normalarni ham chuqur o'rganish va mos jihatlarini inobatga olish zarur va SI foydalanish bo'yicha majburiy etik mezonlar va javobgarlik doiralarini aniq belgilash.

Ilmiy yangiliklari. SI ishtirokidagi nizolarning xalqaro huquqiy tasnifi va huquqiy subyektivlik masalalari tizimli tahlil qilindi;

Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya tajribalari solishtirildi;

O'zbekiston qonunchiligida SI bilan bog'liq normativ-huquqiy jarayonlar o'rganildi.

Kalit so'zlar. sun'iy intellekt, xalqaro xususiy huquq, transchegaraviy nizo, etik tamoyillar, model qonun, huquqiy javobgarlik, shartnomaviy nizolar, O'zbekiston.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF–6079-son Farmoni // www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi. – <https://president.uz/oz/lists/view/8034>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. "Aholi huquq va erkinliklari kafolatlari yanada kuchaytiriladi" //



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

<https://parliament.gov.uz/news/aholi-huquq-va-erkinliklari-kafolatlari-yanada-kuchaytiriladi>

4. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris, 2021. – <https://www.unesco.org/en/artificial-intelligence/recommendation-ethics>

5. Dornis, K.-N. “Artificial Intelligence and the Private Law: Theoretical and Practical Questions”. // European Review of Private Law, 2023, Vol. 31(2), pp. 193–217. —

<https://kluwerlawonline.com/journalarticle/European+Review+of+Private+Law/31.2/ERPL2023013>